

**“KELISHILDI”**

“Dehqonobod kaly zavodi” AJ  
Kasaba iushma qo‘mitasi raisi  
  
N. Ko‘chkinov  
2024-yil

**“TASDIQLAYMAN”**

“Dehqonobod kaly zavodi” AJ  
Boshqaruv raisvi v.b.  
  
T. Zaripov  
« 16 » may 2024-yil

**“DEHQONOBOD KALIY ZAVODI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING  
ISHGA KIRUVCHI NOMZODLARNI TEKSHIRISH PROTSEDURASI**

Ishlab chiqdi:


Komplayens xizmati boshlig‘i



O‘Meyliyev

Kelishildi:

Boshqaruv raisining birinchi  
o‘rinbosari




B.Normuratov

Boshqaruv raisining Iqtisod va moliya  
bo‘yicha o‘rinbosari



U.Isaev

Boshqaruv raisining transport va  
logistika bo‘yicha o‘rinbosari v.b.



J.Yusupov

Yuridik bo‘lim boshlig‘i



A.Umarov

Hujjat kodi

KQKMT-5

Tahrir raqami

1

Amal qilish muddati

16.05.2024

dan 16.05.2024 gacha

Mazkur hujjat “Dehqonobod kaly zavodi” AJning mulki hisoblanadi va oshkor qilib bo‘lmaydigan xarakterga ega. Hujjatning to‘lig‘icha yoki alohida qismlari nuxslarga ko‘paytirilishi, shuningdek, Komplayens xizmati rahbari ruxsatisiz tashkilot xodimi hisoblanmagan begona shaxslarga berilishi man etiladi. Kiritiladigan o‘zgartirishlar faqat hujjatning asli va ro‘yxatga olingan nuxalaridagina qayd qilinishi lozim.

NAZORAT NUSXASI №  
КОНТРОЛЬНЫЙ ЭКЗЕМПЛЯР  
“DKZ” AJ-AO «П-3»

## MUNDARIJA

<b>1. O'ZGARTISHLARNI QAYD QILISH VARAG'I .....</b>	<b>3</b>
<b>2. ASOSIY QOIDALAR .....</b>	<b>4</b>
<b>3. QO'LLANISH DOIRASI VA JAVOBGARLIGI .....</b>	<b>4</b>
<b>4. TA'RIFLAR VA QISQARTIRISHLAR .....</b>	<b>4</b>
<b>5. TEKSHIRILISHI LOZIM BO'LGAN NOMZODLAR .....</b>	<b>5</b>
<b>6. TEKSHIRISHNI O'TKAZISHNING UMUMIY TAMOYILLARI.....</b>	<b>6</b>
<b>7. TEKSHIRISH MUDDATLARI.....</b>	<b>6</b>
<b>8. TEKSHIRISH UCHUN HUJJATLAR VA MA'LUMOTLARNI OLISH .....</b>	<b>6</b>
<b>9. TEKSHIRISHNI O'TKAZISH UCHUN MA'LUMOT MANBALARI.....</b>	<b>7</b>
<b>10. TEKSHIRISHNI O'TKAZISH METODOLOGIYASI VA QOIDALARI.....</b>	<b>7</b>
<b>11. TEKSHIRISH NATIJALARI.....</b>	<b>8</b>
<b>12. HUJJATLARNI TEKSHIRISH VA SAQLASH MUDDATINI RASMIYLASHTIRISH.....</b>	<b>8</b>
<b>13. O'ZGARTIRISH KIRITISH TARTIBI.....</b>	<b>9</b>
<b>1-ILOVA ISHGA KIRUVCHI NOMZODLARNI TEKSHIRISH REESTRI .....</b>	<b>10</b>
<b>2-ILOVA TEKSHIRISH NATIJALARI TO'G'RISIDA XULOSA .....</b>	<b>11-13</b>



## Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi hujjatlari

**KQKMT-5**

Sahifa 2/13



## **1. O'ZGARTISHLARNI QAYD QILISH VARAG'I**

## **2. ASOSIY QOIDALAR**

2.1 "Dehqonobod kaliy zavodi" aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o'rnlarda-Jamiyat) Ishga kiruvchi nomzodlarni tekshirish protsedurasi (keyingi o'rnlarda "Protcedura" deb yuritiladi) Jamiyatning Kadrlar bo'limi xodimlari tomonidan nomzodlarni tekshirishning asosiy tamoyillari, tartibi, metodologiyasi va muddatlarini belgilaydi.

2.2. Nomzodlarni tekshirish maqsadi quyidagilardan iborat:

- Nomzodning o'zi, uning kasbiy faoliyati, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan davlat amaldorlari bilan oilaviy va tijorat munosabatlari to'g'risidagi ma'lumotlarini tekshirish;

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq, o'z xizmat vazifalarini xolis va vijdonan bajarishga qodir bo'lgan, yuqori malakali jismoniy shaxslar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish;

- Jamiyatda xizmat vazifalarini bajarish uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo'lmagan, huquqburzaliklarni sodir etishga, shu jumladan, korrupsiya va boshqa firibgarlik harakatlariga moyil bo'lgan nomzodlar bilan mehnat munosabatlariga kirish xavfini minimallashtirish. Nomzodlar xarakterining xususiyatlari va/yoki turmush tarzi Jamiyat obro'siga putur yetkazish, korrupsiya va boshqa xavflarni o'z ichiga oladi.

## **3. QO'LLANISH DOIRASI VA JAVOBGARLIGI**

3.1. Nomzodlarni tekshirish jarayonida ishtiroy etayotgan Jamiyat xodimlari ushbu Protcedurada belgilangan talablarga rioya qilish uchun shaxsan javobgar bo'ladilar.

3.2. Ushbu Protceduraning qoidalarini buzgan aybdor shaxslar huquqni muhofaza qilish organlari yoki boshqa shaxslarning tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida, Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarida va Jamoa mehnat shartnomasida nazarda tutilgan tartibda va asoslarda intizomiy va boshqa javobgarlikka tortilishi mumkin.

## **4. TA'RIFLAR VA QISQARTIRISHLAR**

### **Ta'riflar:**

<b>Jamiyat</b>	"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ
<b>Jamiyat boshqaruv organlari</b>	Kuzatuv kengashi
<b>Hujjat</b>	Identifikasiya qilish imkoniyatini beruvchi rekvizitlarga ega, moddiy eltuvchida rasmiylashtirilgan ma'lumot.
<b>Xujjatlashtirilgan axborot</b>	Tashkilot tomonidan boshqarish va ishga yaroqli xolatda saqlash talab etiladigan ma'lumot.
<b>Yozuvlar</b>	Bu natijaga erishilganligini tasvirlaydigan yoki faoliyatni amalga oshirilganligini isbotini tasvirlaydigan hujjatlar.
<b>Protcedura</b>	Jarayoni yoki faoliyatni amalga oshirishni o'rnatilgan usuli
<b>Yaqin qarindoshlar</b>	Xodim bilan qarindosh bo'lganlar, ya'ni ota-onalari, aka-ukalar va opa-singillari, er (xotin), farzandlari, shu jumladan, arning (xotinning) ota-onalari, aka-ukalar va opa-singillari.
<b>Davlat mansabdor shaxsi</b>	O'zbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi yoki sud hokimiyatida tayinlangan yoki saylanadigan lavozimni egallagan har qanday shaxs; O'zbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlat, shu jumladan davlat organi, korxona yoki muassasa uchun davlat

	vazifalarini bajaruvchi har qanday shaxs; xalqaro tashkilotning har qanday rasmiysi yoki vakili; siyosatchilar, siyosiy partiylar amaldorlari, shu jumladan siyosiy lavozimlarga nomzodlar.
<b>Ijrochi</b>	Nomzodni tanlash va professional tanlash jarayonini nazorat qiluvchi, nomzod haqidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash va tahlil qilishni o'z ichiga olgan nomzodni to'g'ridan-to'g'ri tekshiradigan Jamiatning Kadrlar boshqarmasi va tegishli bo'limi xodimi.
<b>Nomzod</b>	Jamiatning bo'sh ish lavozim talablariga javob beradigan, professional bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lgan, tanlovdan o'tadigan va tanlanadigan shaxs
<b>Manfaatlar to'qnashuvi</b>	Xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda xodimning shaxsiy manfaatdorligi bilan Jamiatning o'rtaida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.
<b>Shaxsiy manfaaat</b>	Xodimning va/yoki uning yaqin qarindoshining unga va/yoki uning yaqin qarindoshlariga pul mablag'lari, boshqa mol-mulk, shu jumladan, mulkiy huquqlar, mulkiy xizmatlar, bajarilgan ishlari natijalari yoki boshqa imtiyozlar (afzalliklar) olish imkoniyati bilan bog'liq bo'lgan qiziqishi.
<b>Rahbarlik lavozimlar</b>	Departament / boshqarma / bo'linma / xizmatlari rahbarlari, shuningdek, Jamiatda boshqaruv vazifalarini bajaradigan boshqa xodimlar

#### **Qisqartirislari:**

<b>KQKBT</b>	Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi
<b>KQKBT RV</b>	Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi rahbariyat vakili
<b>KQKBTP</b>	Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi prosedurasi
<b>KQKBTJ</b>	Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi jarayoni
<b>ISO</b>	Xalqaro standartirish tashkiloti

### **5. TEKSHIRILISHI LOZIM BO'LGAN NOMZODLAR**

5.1. Tanlov qaysi lavozimda bo'lishidan qat'i nazar, barcha nomzodlar tekshirilishi kerak, Jamiatning boshqaruv organlari a'zolari bundan mustasno.

5.2. Jamiatning boshqaruv organlari a'zolarini tekshirish «Dehqonobod kaly zavodi» aksiyadorlik jamiyatni ijroiya organi rahbarlarini tanlash to'g'risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasining tegishli xizmatlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

5.3. Tekshirish quyidagi holatlarda o'tkazilmaydi:

- Jamiatning xodimlari bo'lgan va lavozimga ko'tarilish/pasayish yoki rotatsiya tufayli boshqa lavozimga o'tkazilgan nomzodlar;

- Jamiatning sho''ba korxonalari xodimlari bo'lgan nomzodlar, agar sho''ba korxonalar ishga joylashish uchun nomzodlarni tekshirish bo'yicha shunga o'xshash tartibni qabul qilgan bo'lsa va sho''ba korxonasi oldingi tekshiruv natijalarini taqdim etishi mumkin.

Ushbu istisno, mazkur bandda ko'rsatilgan hollarda, xodimni Jamiatda yoki sho''ba korxonadan boshqa lavozimga o'tkazishda amalga oshiriladigan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini tekshirishga taalluqli emas.

5.4. Kadrlar bo‘limi tashabbusi va Jamiat Boshqaruvi raisining ruxsati bilan quyidagi hollarda xodimlar va nomzodlar qo‘srimcha tekshirishdan o‘tkazilishi mumkin:

- Ushbu protseduraning 5.3-bandiga muvofiq, Jamiat/SHo“ba korxonalar ichida o‘tkazishlar amalga oshirilganda. nomzod haqidagi ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish uchun;
- Xodim ishlagan kundan boshlab 3 (uch) yildan ortiq vaqt o‘tganidan keyin.

## **6. TEKSHIRISHNI O‘TKAZISHNING UMUMIY TAMOYILLARI**

6.1. Nomzodni tekshirish Jamiatning Kadrlar bo‘limi xodimi tomonidan nomzod professional tanlov va/yoki sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgandan va u bilan ishslashning moliyaviy hamda boshqa shartlari kelishilganidan keyin amalga oshiriladi.

6.2. Nomzodlarni tekshirish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga, O‘zbekiston Respublikasining "SHaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida" 02.07.2019 yildagi O‘RQ-547-son qonuniga, shuningdek, Jamiatning ichki me’yoriy hujjatlariga muvofiq ish beruvchi sifatida faoliyat yurituvchi Jamiat manfaatlarini ko‘zlab, ob’ektiv har tomonlama xolis amalga oshiriladi.

## **7. TEKSHIRISH MUDDATLARI**

7.1. Nomzodni tekshirish ushbu Protcedurada ko‘rsatilgan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- Nomzod Jamiatning ichki me’yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan saralashning barcha bosqichlarini o‘tishi;
- Nomzod(lar)ni ishga qabul qilish bo‘yicha tekshirish o‘tkazadigan bo‘lim boshlig‘ining yozma tasdig‘i.

7.2. Nomzodni tekshirish ijrochining ushbu Protceduraning 8.2-bandida nazarda tutilgan barcha hujjatlar va ma’lumotlarni olgan paytdan boshlab tekshirilayotgan nomzodning lavozimiga qarab quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- Boshqaruv lavozimiga nomzod - 10 (o‘n) ish kuni ichida;
- Boshqa nomzodlar-5 (besh) ish kuni ichida.

7.3. Agar nomzodni belgilangan muddatlarda tekshirish imkoni bo‘lmasa, uning davomiyligi 5 (besh) ish kuniga qadar Kadrlar bo‘limi boshlig‘i hamda tekshirishni amalga oshiradigan bo‘lim boshlig‘i bilan kelishilgan holda uzaytirilishi mumkin.

## **8. TEKSHIRISH UCHUN HUJJATLAR VA MA’LUMOTLARNI OLISH**

8.1. Agar lozim topilsa, bo‘sh lavozimga bir vaqtning o‘zida bir nechta nomzodlar uchun tekshirish o‘tkazilishi mumkin.

8.2. Tekshirish o‘tkazish uchun Kadrlar bo‘limining mas’ul xodimi nomzoddan quyidagi hujjatlarni olishi kerak:

- O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq ishga qabul qilishda talab etiladigan hujjatlarning nusxalari ;
- Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishslash uchun nomzod tomonidan imzolangan rozilik xati nusxasi;
- Nomzod tomonidan to‘liq to‘ldirilgan va imzolangan so‘rovnomasi.

Agar so‘rovnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarni tekshirish zarur bo‘lsa, Ijrochi nomzoddan tasdiqlovchi hujjatlarni so‘raydi, lekin nomzodning O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortishi ishga qabul qilishdan bosh tortish uchun sabab bo‘la olmaydi.

8.3. Ba'zi maydonlar to'ldirilmagan so'rovnomanı olgach, kadrlar bo'limining mas'ul xodimi nomzoddan yetishmayotgan ma'lumotlarnı so'rashi shart.

8.4. Ijrochi hujjatlarnı qabul qilish to'g'risidagi ma'lumotlarnı ishga qabul qilinganidan keyin 1 (bir) ish kunidan kechiktirmay Ishga kiruvchi nomzodlarnı tekshirish reestriga kiritadi (ushbu Protseduraga 1 -lova shaklida).

8.5. Ijrochi nomzod arizani berishdan yozma ravishda bosh tortgan taqdirda, nomzodni o'zidagi mayjud axborotlarga, shuningdek rasmiy so'rov yuborish orqali olingan ma'lumotlarga asoslanib tekshirishi mumkin. Bunday holda, Ijrochi tekshiruv natijalari Xulosada tegishli belgini qo'yadi (ushbu Protseduraga 2 ilova shaklida).

Nomzodning shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga uning yozma rozilgisiz tekshirish amalga oshirilmaydi.

## **9. TEKSHIRISHNI O'TKAZISH UCHUN MA'LUMOT MANBALARI**

9.1. Nomzodni tekshirish doirasida Ijrochi nomzoddan olingan ma'lumotlarni, shuningdek, boshqa ochiq manbalardan yoki rasmiy so'rovlarni yuborish orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi va qayta ishlaydi.

9.2. Ijrochi tomonidan ma'lumotlarni to'plash nomzod haqida yaxlit va ob'ektiv fikr yaratish, shuningdek, nomzodning o'zi, shu jumladan so'rovnomada ko'rsatilgan ma'lumotni yashirish va/yoki soxtalashtirish belgilari yo'q hujjatlarning ishonchlilagini baholash uchun mavjud bo'lgan barcha axborot manbalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi

9.3. Nomzodni tekshirish uchun axborot manbalari qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi kerak. Taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish uchun avvalgi ish joylariga, ta'lim muassasalariga va h.k. larga rasmiy so'rov yuborishga yo'l qo'yiladi.

9.4. Tekshirish uchun quyidagi ochiq axborot manbalaridan foydalanish mumkin:

- Yuridik shaxslar va yakka tartibdagи tadbirkorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish bo'yicha Davlat xizmatlari agentligi platformasi - <https://fo.birdarcha.uz>
- Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali - <https://my2.soliq.uz>
- O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali - <https://data.gov.uz>
- Yer resurslari va davlat kadastro boshqarmasi - <http://kadastr.uz>
- AQSHning maxsus toifalar va taqiqlangan shaxslar ro'yxati (WorldCheck ma'lumotlar bazasi)
- <https://sanctionssearch.ofac.treas.gov/>

Ushbu ro'yxat Ijrochi tomonidan tekshirish doirasida ishlatilishi mumkin bo'lgan tavsiya etilgan manbalar ro'yxati bo'lib, kerak bo'lganda kengaytirilishi mumkin.

9.5. Ijrochi nomzoddan taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha tushuntirish va qo'shimchalar talab qilish huquqiga ega.

9.6. Agar lozim topilsa, nomzod bilan bog'liq har qanday ma'lumotni aniqlashtirish va /yoki uning xatti-harakatlarini tahlil qilish uchun Ijrochi va/yoki Jamiatning boshqa xodimlari bilan tashkil qilinishi mumkin. Bunday suhbat zarurligi haqidagi ma'lumotlar Kadrlar bo'limi boshlig'i hamda suhbatni tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan tashabbuskorga ma'lum qilinadi.

## **10. TEKSHIRISHNI O'TKAZISH METODOLOGIYASI VA QOIDALARI**

10.1. Ijrochi tomonidan nomzodni tekshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Nomzodning iqtisodiy jinoyatlar bilan bog'liq fuqarolik, ma'muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortilganligi va / yoki uni jalb qilish faktlari to'g'risida ma'lumot yo'qligi;

- Boshqaruv lavozimlarni egallashni taqiqlashning yo‘qligi - rahbarlik lavozimiga nomzod uchun;

- Nomzod va/yoki uning yaqin qarindoshlari to‘g‘risida, shu jumladan korrupsiya, firibgarlik yoki boshqa noqonuniy harakatlarda ishtirok etish to‘g‘risida salbiy va kompromat ma’lumotlarning yo‘qligi;

- Oldingi ish joylaridan salbiy tavsiyalarning yo‘qligi;

- Nomzod va uning yaqin qarindoshlarining davlat amaldorlari bilan aloqadorlik belgilarining yo‘qligi;

- Nomzodda manfaatlar to‘qnashuvi belgilari yo‘qligi;

- Nomzodga nisbatan boshqa xavf ko‘rsatkichlarining yo‘qligi (shu jumladan, salbiy kredit tarixining yo‘qligi; ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan turmush tarzi rasmiy daromad darajasiga mos keladi va hokazo).

10.2. Belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha tekshiruv o‘tkazish majburiydir. Bunday holda, tekshirish yo‘nalishlari ro‘yxati, agar kerak bo‘lsa, har bir alohida holatda kengaytirilishi mumkin.

## **11. TEKSHIRISH NATIJALARI**

11.1. Nomzodni tekshirish natijalari bo‘yicha Ijrochi tekshirish natijalari to‘g‘risida xulosa tuzadi (ushbu Proseduraga 2-ilova shaklida).

11.2. Tekshiruv bo‘yicha xulosaning 3-bo‘limidagi 3.5, 3.6 yoki 3.7 savollardan tashqari, har qanday savolga bitta yoki bir nechta xavf ko‘rsatkichlari ("ha" javoblari) mavjud bo‘lsa, nomzod umumiyl salbiy bahoni oladi.

11.3. Xulosaning 4.5, 4.6 yoki 4.7 -bandlardagi savollarning kamida bittasiga bir yoki bir nechta xavf ko‘rsatkichlari ("ha" javoblari) bo‘lsa, tekshirish natijalari va tuzilgan xulosa kompleans-nazorat rahbari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Shu maqsadda Ijrochi korrupsiya xavflarning mavjudligi yoki yo‘qligi uchun olingan ma’lumotlarni baholash uchun komplaens-nazorat xizmatiga so‘rov yuboradi. So‘rovga nomzodning so‘rovnomasasi va Ijrochi tomonidan imzolangan tekshirish natijalari to‘g‘risidagi xulosa ilova qilinadi. Ko‘rsatilgan so‘rov ushbu Proseduraning 7.2-bandida nazarda tutilgan muddat tugashidan 2 ish kunidan kechikmay komplaens-nazorat xizmatiga yuborilishi kerak.

11.4. Komplaens-nazorat xizmati rahbari Ijrochiga tegishli bo‘limni to‘ldirish orqali baholash so‘rovi olingan vaqtidan boshlab bir ish kunidan kechiktirmay tekshirish xulosasi asosida korrupsiya xavfi mavjudligi yoki yo‘qligi uchun olingan ma’lumotlarni baholashni ta’minlashi shart.

11.5. Nomzodga salbiy baho berilsa va/yoki komplaens-nazorat xizmati rahbari tomonidan e’tirozlar bo‘lgan taqdirda, nomzodni ishga qabul qilish to‘g‘risidagi qarorni Jamiyat boshqaruv raisi nomzodni tanlagan bo‘lim boshlig‘i va Kadrlar bo‘limi boshlig‘i tomonidan tomonidan tuzilgan xizmat xati asosida qabul qiladi. Xizmat xati eslatmasiga tekshirish natijalari haqidagi xulosaning nusxasi ilova qilinadi.

11.6. Ijrochi tekshiruv natijalari tasdiqlanganidan keyin uch ish kunidan kechiktirmasdan tekshiruvning natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ishga nomzodlarni tekshirish reestriga kiritadi (ushbu Proseduraga 1 ilova).

## **12. Hujjatlarni tekshirish va saqlash muddatini rasmiylashtirish**

12.1. Nomzodni tekshirish natijalari (shu jumladan, tekshirish natijalari to‘g‘risidagi xulosa va boshqa tegishli hujjatlar va/yoki ma’lumotlar) maxfiy hisoblanadi va nomzodni tanlash va tekshirish jarayonida ishtirok etmagan Jamiyat xodimlariga va boshqa uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi.

12.2. Kadrlar boshqarmasi boshlig'i va kompleans xizmati xodimlari, shuningdek Jamiat boshqaruvi raisi Ishga kiruvchi nomzodlarni tekshirish reestrini ko'rish huquqiga ega. (ushbu Proseduraga 1 -ilova).

Boshqa xodimlar o'z vazifalarini bajarish uchun bunday ma'lumotlarga ehtiyoj sezganda Jamiat Boshqaruvi raisining yozma roziligin olishlari kerak.

12.3. Nomzod ishga qabul qilingan taqdirda uni tekshirish natijalari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan muddat va tartibda xodimning shaxsiy ish hujjatida majburiy saqlanishi kerak.

12.4. Jamiatda ishlamagan nomzodlarni tekshirish natijalari, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'limasa, uch yil davomida Jamiatning Kadrlar bo'limida majburiy saqlanishi kerak.

### **13. O'ZGARTIRISH KIRITISH TARTIBI**

13.1. Ushbu Prosedura doimiy amaldagi ichki me'yoriy hujjat bo'lib, Jamiat Boshqaruvi raisining buyrug'i bilan tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga kiradi va bekor qilingan yoki yangi tahrir tasdiqlangunga qadar amal qiladi.

13.2. Ushbu Prosedura O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va/yoki Jamiatning mavjud faoliyati va tartib-taomillarini qayta ko'rib chiqish zarurligiga olib keladigan nomzodlarni tekshirish sohasidagi yetakchi xalqaro amaliyotlar o'zgargan taqdirda qayta ko'rib chiqilishi va tuzatilishi kerak. Ushbu Proseduraga kiritilgan barcha o'zgartish va qo'shimchalar Jamiat Boshqaruvi raisining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.



# **Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi hujjatlari**

KQKMT-5

Sahifa 10/13

## *1-Ilova Ishga kiruvchi nomzodlarni tekshirish reestri*

## Ishga kiruvchi nomzodlarni tekshirish reestri



**Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi  
hujjatlari**

KQKMT-5

Sahifa 11/13

**2-Ilova Tekshirish natijalari to‘g‘risida xulosa**

**Tekshirish natijalari to‘g‘risida xulosa**

“Dehqonobod kalyi zavodi” AJda ishga nomzodlarni tekshirish natijalari bo‘yicha xulosa  
№ \_\_ «\_\_» \_\_\_\_\_ yil.

1.	Asosiy ma'lumot	
1.1	Nomzod FISH	
1.2	Tug'ilgan sanasi	
1.3	Vakansiya/lavozim	
1.4	Bo'linma	
1.5	Telefon	
1.6	Elektron pochta manzili	

2.	Ish tajribasi	
2.1	Oldingi ish joylari (teskari xronologik tartibda), lavozimlar	
2.2	Oldingi ish joylaridan salbiy sharhlarning mavjudligi	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo‘q Izoh(lar): Manba(lar):

3.	Tekshiruv natijalari	
3.1	Ushbu protseduraning 7.2-bandida ko'zda tutilgan hujjatlarning to'liq to'plami olinganmi?	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo‘q Mavjud bo‘lmagan hujjat(lar): Mavjud emasligi sababi:
3.2	Nomzoddan olingan, shu jumladan arizada ko'satilgan hujjatlarni ishonchsizligi belgilarining, shuningdek, o'zi haqidagi ayrim ma'lumotlarni yashirish va (yoki) qalbakilashtirish belgilarining mavjudligi.	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo‘q Izoh(lar): Manba(lar):
3.3	Nomzodning sudlanganligi va (yoki) iqtisodiy xarakterdagи huquqbuzarliklar uchun fuqarolik, ma'muriy, jinoiy, intizomiy yoki boshqa javobgarlikka tortilganligi faktlari mavjud bo'lsa.	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo‘q (agar ha bo'lsa, sabablarini ko'rsating) Izoh(lar): Manba(lar):
3.4	Rahbarlik lavozimlarini egallashga taqiqning mavjudligi (rahbarlik lavozimiga nomzod uchun)	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo‘q Izoh(lar):

		Manba(lar):	
3.5	Nomzod va uning yaqin qarindoshlarining davlat organlariga mansubligi belgilarining mavjudligi:	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo‘q
	1) Nomzod hozirda (o‘rindosh) davlat amaldori lavozimini egallaydi	<input type="checkbox"/> Ha (agar shunday bo'lsa: ish joyi, lavozimi, asosiy vazifalari, shuningdek tashkilotdada ishlash uchun zarur ruxsatnomasi mavjudligini tekshiring) Izoh(lar):	<input type="checkbox"/> Yo‘q
	2) Ishga nomzod sobiq hukumat amaldori	<input type="checkbox"/> Ha (agar ha bo'lsa: ish davri, ish joyi, lavozimi, asosiy vazifalari ko'rsating) Izoh(lar):	<input type="checkbox"/> Yo‘q
	3) Nomzodning yaqin qarindoshlari amaldagi hukumat amaldorlaridir	<input type="checkbox"/> Ha (agar ha bo'lsa: to'liq ism va munosabatlar darajasi, ish joyi, lavozimi, asosiy vazifalari ko'rsating) Izoh(lar):	<input type="checkbox"/> Yo‘q
3.6	Nomzodda manfaatlar to‘qnashuvi belgilari mavjud:	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo‘q
	1) Nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari boshqaruv lavozimini va/yoki qaror qabul qilish bilan bog‘liq lavozimni egallaydi va/yoki boshqa (shu jumladan raqobatbardosh) kompaniyalarining boshqaruv organlariga a’zo bo’lsa.	<input type="checkbox"/> Ha (agar ha bo'lsa: to'liq ism va munosabatlar darajasi (agar manfaatlar to‘qnashuvi nomzodning qarindoshlari bilan bog‘liq bo'lsa), kompaniya nomi, lavozimi ko'rsating) Izoh(lar):	<input type="checkbox"/> Yo‘q
	2) Nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari har qanday tashkilotning ustav kapitalidagi ochiq sotilmaydigan aksiyalarga yoki ulushlarga, yoxud har qanday tashkilotning Toshkent Respublika fond birjasida yoki boshqa fond birjasida ochiq sotuvga qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlarining 5 foiz va undan ortiq qismiga egalik qiladi yoki boshqa boshqa (shu jumladan raqobatbardosh) kompaniyalar faoliyati natijalariga shaxsiy manfaatdorlik (shu jumladan investitsiyalar orqali).	<input type="checkbox"/> Ha (agar ha bo'lsa: to'liq ism va munosabatlar darajasi (agar manfaatlar to‘qnashuvi nomzodning qarindoshlari bilan bog‘liq bo'lsa), kompaniya nomi, lavozimi ko'rsating) Izoh(lar):	<input type="checkbox"/> Yo‘q
	3) Boshqa belgilari	<input type="checkbox"/> Ha Izoh(lar):	<input type="checkbox"/> Yo‘q
3.7	Nomzod va/yoki uning yaqin qarindoshlari, shu jumladan	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo‘q

	korruptsion, firibgarlik yoki boshqa noqonuniy harakatlarda ishtirok etishi haqida salbiy va/yoki murosasiz ma'lumotlarning mavjudligi	Izoh(lar):  Manba(lar):
3.8	Nomzod bilan bog'liq boshqa xavf ko'rsatkichlari (shu jumladan, salbiy kredit tarixining yo'qligi, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan turmush tarzi rasmiy daromad darajasiga mos kelmasligi va boshqalar).	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q  Izoh(lar):  Manba(lar):
3.9	Boshqa ma'lumotlar (shu jumladan suhbat natijalari (agar u o'tkazilgan bo'lsa))	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q  Izoh(lar):  Manba(lar):

4.	Xulosa	Ha / Yo'q	Izohlar
	Xavf ko'rsatkichlarining mavjudligi		Belgilangan toifadagi kamida bitta xavf mayjud bo'lganda salbiy xulosa
4.5, 4.6 yoki 4.7-banddagi xavf ko'rsatkichlarining mavjudligi			Komplayens xizmatidan qo'shimcha xulosa talab qilinadi
YAKUNIY NATIJA		(salbiy reyting / ijobiy reyting / Komplayens xizmatining fikri talab qilinadi)	
TAVSIYALAR (aniqlangan xavflarni hisobga olgan holda)			

**4.1 Komplayens xizmatining xulosasi, shu jumladan. tavsiyalar (agar kerak bo'lsa)**


Komplayens xizmati rahbari \_\_\_\_\_ (FISH)

\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_\_» 20 \_\_\_\_\_.  
 (imzo) (sana)

Ijrochi \_\_\_\_\_ (FISH)

\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_\_» 20 \_\_\_\_\_.  
 (imzo) (sana)

Bo'lim boshlig'i \_\_\_\_\_ (FISH)

\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_\_» 20 \_\_\_\_\_.  
 (imzo) (sana)